

**Onlayn mikroqarz shartnomasiga
1-sonli QO‘SHIMCHA KELISHUV**

Toshkent sh.

16.03.2023 y.

Mazkur Onlayn mikroqarz shartnomasiga 1-sonli qo‘shimcha kelishuv (keyingi o‘rinlarda “Kelishuv” deb yuritiladi) bank mijozlari bo‘lgan va Bank bilan tuzilgan Onlayn mikroqarz shartnomasiga (keyingi o‘rinlarda “Shartnoma” deb yuritiladi) muvofiq joriy onlayn mikroqarzga ega bo‘lgan jismoniy shaxslarga (keyingi o‘rinlarda “Mijoz” deb yuritiladi), O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi, 369-moddasining 2-qismi va 370-moddasi hamda Shartnomaga muvofiq qo‘shimcha kelishuvni tuzishga yo‘naltirilgan “TBC Bank” ATBning (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb yuritiladi) rasmiy taklifi (Oferta) hisoblanadi.

Mijoz tomonidan ushbu Ofertada nazarda tutilgan harakatlarning bajarilishi uning quyida keltirilgan shartlarga so‘zsiz roziligini bildiradi (Ofertani qabul qilish).

Oferta qabul qilingan vaqtdan boshlab Kelishuv tuzilgan hisoblanadi. Kelishuvda aniq nazarda tutilmagan barcha holatlarda tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga hamda Bank va Mijoz o‘rtasida tuzilgan shartnomalarga amal qiladilar.

1. Shartnomaning 4.8-bandini quyidagi tahrirda qabul qilinsin va bayon etilsin:

“4.8. Shuningdek, dastlabki jadval qayta hisoblab chiqiladi va ushbu jadvalda asosiy qarzning muddatidan oldin to‘langan qismi jadvalga muvofiq keyingi to‘lovlar uchun hisobga olinadi, shu jumladan asosiy qarzning qoldig‘i kredit shartnomasining amal qilish muddati tugaguniga qadar annuitet usul bilan hisob-kitobga kiritilgan sanagacha faqat hisoblangan foizlar so‘ndiriladi.”.

2. Shartnomaning mazkur Kelishuvda nazarda tutilmagan barcha boshqa bandlari o‘zgarishsiz qoladi.

3. “TBC Bank” ATBning Bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha Bosh Shartlarga muvofiq ular kuchga kirishidan 10 (o‘n) kun avval Bank ushbu oferta bilan bildirishnoma yuboradi. Xabarnoma yuborilgandan keyin 10 (o‘n) kun o‘tgach, agar mijoz belgilangan muddatda e‘tiroz bildirmasa va kreditdan foydalanishda davom etsa va/yoki so‘ndirish jadvaliga muvofiq joriy onlayn mikroqarz bo‘yicha to‘lovni amalga oshirsa, mazkur oferta 10 (o‘n) kun o‘tgandan keyingi kundan va/yoki joriy qarzdorlikni so‘ndirish kundan keyingi kundan boshlab qabul qilingan va kuchga kirgan deb hisoblanadi.

4. Mazkur Kelishuv rus, o‘zbek va ingliz tillarida tuzilgan bo‘lib, ular o‘rtasida nomuvofiqliklar aniqlangan taqdirda rus tilidagi Kelishuv ustunlikka ega bo‘ladi va u Kelishuvning ajralmas qismi hisoblanadi.